

**XXI ASR O'ZBEK YOSH KOMPOZITORLAR ASARLARIDA MUSIQIY**

**INOVATSIALARI HAMDA BADIY VA ESTETIK QARASHLARI**

Farhodjon Nazarov

Termiz davlat universiteti o'qituvchisi

**Annotatsiya:**

Ushbu maqola xxi asr o'zbek yosh kompozitorlar asarlarida musiqiy inovatsialari hamda badiiy va estetik qarashlari haqida yozilgan. Kompozitorlik ijodiyotida musiqiy taffakurning rivojlanish bosqichlari, XXI asr kompozitorlik ijodiyotining taraqqiy etishida XX asr musiqiy davrning ta'siri va shu kabi fikirlar atroflicha o'rganilgan.

**Kalit so'zlar:** Yosh kompozitorlar, fortepiano asarlari, pedagogik tamoyillari, inovatsion yondashuvlari, musiqiy til, lad.

**Kirish**

Musiqa shunday nafis, beg'ubor, san'atning ajoyib turlaridan biriki, u doim insonlar bilan hamrohlikda bo'ladi. Biroq ushbu san'at turi ko'pincha qobilyati, o'z ustida tinmay mehnat qilib charchamaydigan insonlarnigina o'ziga chorlaydi va dunyoga mashhur etadi. Musiqa san'atning rivojlanishida kompozitorlik ijodiyotining ahamiyati behisobdir.

Umuman xar bir Xalqning ma'naviy saviyasini oshirish, yosh avlodni yuksak insoniy g'oyalar, ona Vatanga mehr va sadoqat ruhida tarbiyalash, milliy va umuminsoniy qadriyatlar asosida kamol toptirishda musiqa san'atining o'rni va ahamiyati beqiyosdir[3].

Darhaqiqat Bugungi kunda musiqa san'atning kelajak rivoji uning taraqiyoti yosh kompozitorlar ijodiyotining nota matnlarida aks etadi. Unda insoniyatning mangu an'analari qadriyatları buyuk musiqa meroslari o'chmas tarixlari bilan gavdalaniishi kabi qator voqeliklarga boy musiqa asarlarning keng ilmiy tadbiq etilishi taqrg'ibot-tashviqot jarayonlari muhim ahamiyat kasb etadi. Inson yashar ekan yangilikka intiladi, bugun yangilik deb bilganlarimiz vaqt o'tib tarix sahifalaridan joy oladi. Shunday ekan, jamiyatning rivojlanishi doimo tarix bilan xamnafaslikda sodir bo'ladi. Musiqa olamining ko'lami beqiyos, xar bir inson musiqa orqali yashaydi hamda zavq oladi. Bugungi kunda xayotimizda musiqaning alohida o'rni bor.

Tahlil va natijalar: XXI asr yosh kompozitorlari tomonidan bugungi kunda ko'plab asarlar yaratilmoqda. Albatda bu jarayon tatqiqotchilar, musiqashunoslar olimlar nazariga tezda tushadi. Chunki asarlar qanchalik dolzarb qay darajada ijrochilar tomonidan baxolanadi yoki musiqashinavandalar e'tiboriga tushishi katta qiziqish bilan muhokama qilinadi. Shu boisdan biz ilmiy ishimizda O'zbekiston kompozitorlari va bastakorlari uyushmasi a'zosi, xalqaro tanlovlardan laureati, O'zDK cholg'ulashtirish kafedrasini katta Nurali Erkayevning skripka va

fortepiano uchun yaratgan «Rondo» asari e'tiborimizni jalg etdi. Shu sababli ilmiy ishimizda asar taxliliga va uning inovatsiasi badiiy va estetik qarashlariga ilmiy nazariy yondashamiz[4]. Musiqiy tilning rivojlanish jarayonida lad haqidagi tasawurlar sezilarli taraqqiyotni boshidan kechirgan. Ladning so'nggi ikki asrlarda Yevropa kompozitorlari ijodida yuzaga kelgan qonuniyatlamli o'rganishga asoslangan ta'rifi ko'proq ma'lum. Atoqli pedagog-nazariyachi I.V.Sposobin tomonidan ladga berilgan quyidagi ta'rif ana shu nuqtai nazarni ifodalaydi: “Lad — bir tovush yoki ohangdoshlik ko'rinishida tonika markazi yordamida birlashtirilgan tovush aloqalarining tizimidir”<sup>1</sup>. Bu ta'rif ladi yuqori darajali markazlashtirilgan XVIII-XIX asr kompozitorlari musiqasini o'rganish assosida ishlab chiqilgan. Shuning uchun ham olim tonika va ohangdoshlikka alohida e'tibor bergenligi ko'zga tashlanadi[16].

Shu bilan birga, keyingi o'n yilliklarda XX asr garmoniyasini izchil o'rganish, klassik garmoniyagacha mavjud bo'lgan garmoniyani mufassal tadqiq etish, ladlaming xususiyati yuqorida ko'rsatilganlardan keskin farqlanuvchi tabiatga ega bo'lgan monodik musiqa qonuniyatlarini o'rganilgani bois lad tushunchasini kengaytirish zarurati tug'ildi. Ladning oxirgi va kengroq ta'riflaridan biri quyidagicha: “Lad bu tovush balandligi aloqalarining tizimliligidir”[10].

Bu ta'rifda markaziy tovush yoki ohangdoshlikka tortilish to'g'risida gap yo'q, tizim esa ladning asosini tashkil etuvchi belgi sifatida ko'rsatiladi. Bundan kelib chiqadiki, ladni tashkil qiluvchi tovushlar funksional jihatdan teng ahamiyatga ega emas, ular o'z mazmuniga ko'ra tadrij qilingan va shu bois o'zaro muayyan munosabatlarda bo'ladilar.

Mazkur ta'rif qadimgi yunon tetraxordidan to zamonaviy atonal musiqagacha bo'lgan yo'nalishlami qamrab olganligi tufayli, turli xil lad tuzilmalarini umumlashtirish imkonini beradi. XX asr musiqasi garmoniya vositalari doirasiga tub o'zgartirishlar kiritdi. Shunga ko'ra,akkordning awalgi ta'riflari ham o'zgara bordi. Xususan, akkordning avvalgi asosiy belgisi - tovushlar tersiya bo'y ich a joylashgan bo'lishi kerak degan m'a'nosi, zamonaviy musiqa tajribasida deyarli tasdiqlanmaydi. Yu.N. Tyulin akkordning quyidagi ta'rifini beradi: “Akkord - bu lad va akustika qonuniyatlariga bo'ysunuvchi, muayyan tuzilishga ega va lad tizimiga daxildor bo'lgan ohangdoshlikdir.<sup>2</sup> Lekin Tyulin buta'rifga quyidagicha to'Mdirish kiritadi: “Bu qoidalar tersiya bo'yicha tuzilganakkordlarda ayniqsa aniq ko'rindi” Demak, Tyulin fikricha, tuzilma akkordning asosiy belgisi bo'Mmay, ikkinchi darajali belgi sifatida saqlanib qoladi.

Eng so'nggi davrlarda odad tusini olayotgan akkordlar ta'riflarda, olimlar tuzilma belgisidan butunlay voz kechib, asosiy akkordning belgilar sifatida uning mustaqiligi va yaxlitligini ta'kidlaydilar[11].

Jumladan, T.S. Bershadskaya: “Akkord — bu musiqa to'qimasidagi mantiqiy differensiallashgan konstruktiv jihatdan yaxlit tonlar kompleksi birligidir” deb ta'kidlasa,

<sup>1</sup> Способин И. Элементарная теория музыки. М. Музыка, 1979. С.28.

<sup>2</sup> Тюлин Ю. Учения о гармонии. М. Музыка . 1939.с.37.

Yu.N. Xolopov: "Akkord - bu muayyan mantiqiy tamoyil asosida yaratilgan har qanday mustaqil ohangdoshlik" deya ta'riflaydi. Akkord ta 'rifining yana bir tomoniga ahamiyat berish lozim. Nazariyaning an-'anaviy ta 'rifidaakkord albatta uch tovushdan iborat bo'lishi kerak deyiladi.

Masalan. Yu.N. Tyulinning fikricha: "Akkordning konstruktiv yaxlitligi, balandligi bilan farq qiladigan, kamida uch tovushdan iborat." Olimning fikricha ikki tovush majmuidaakkord tuzilmaydi, chunki bu holda tovushlar birikmasi lad tizimida o 'z o 'm i, ya'ni funksiyasini belgilab bera olmaydi[15]. Mazkur qoida ko'rsatadiki, Tyulin bu masalani hal etishda ko'proq klassik musiqa tajribasiga asoslangan. Ohirgi garmoniyaga bag'ishlangan nazariy ilmiy asarlarda tahlil qilingan uslublaming doirasi kengayib, akkord ta 'rifi, ayniqsa zamonaviy musiqa qoidalarining negizida son jihatidan kamida uchtovushlik bilan cheklanishi, qaytadan ko'rib chiqilmoqda. T.S. Bershadskaya va Yu.N. Xolopov akkord ikki tovushdan ham iborat bo'mishi haqida so'z yuritib, akkordning asosiy belgilari tuzilmada emas, aksincha, tovushlaming o'zaro yaxlitligida va mantiqiy differensiatsiyasida, deb uqtirishadi[12].

### 1.1 namunadagi nota matnni<sup>3</sup>

<sup>3</sup>N. Erkayev Fortepiano va skripka uchun asari.

O'z asarida N. Erkayev o'zbek an'anaviy musiqasiga xos bo'lgan xususiyatlар bo'lmish ritm, lad-intanatsion, cholg'ularning texnik imkoniyatlari, uning tembri, faktura, rivojlanish tamoyillaridan unumli foydalanishga xarakat qilgan. Ushbu asr taxlilini ko'rib chiqishda, e'tiborni birinchi navbatda mavzuga qaratsak. Ma'lumki xar bir janrda mavzuviylik muxim axamiyatga ega[13]. U nafaqat asar g'oyasi, xarakter, obrazni balki, keyingi rivojlov jarayonlarini aniqlab beradi. Mavzu davriya shaklida yozilgan bo'lib, ikki jumлага bo'linadi. Ma'lumki, shunday tuzilish klassik davriyaga xos. Lekin ushbu tuzilish ichida O'zbek milliy xususiyatlari yorqinligi bilan ko'zga tashlanadi. Mavzu ritmikakkordli bayonda boshlanib, butun mavzu va keyingi asar davomida deyarli saqlanib qoladi. Keyingi tuzilmada melodik mavzu kvarta yuqorida yangrab, yangi tayanch tovushni ko'rsatadi va usul biln kontrpunktik bayonda beriladi. Rirmik usulning takrorlanishi, melodik mavzuning lad xususiyatlari, tetraxord bo'yicha tuzilishi, variatsion-variant usuli bo'yicha rivojlanib borishi, faktura ko'rinishlari monodiya qonuniyatlarini eslatadi.

Yuqorida keltirilgandan tashqari, mavzuning yana bir tomoniga e'tibor qaratish maqsadga muvofiq, Kuyning aylanmali turi kvarta atrofidagi harakati, asosiy tayanchdan boshlanishi va doimo bir tayanchga qaytib kelishirondo (aylana doira) ma'nosini aks etiradi. Shu bilan birga, mavzu o'zida qarama – qarshi bo'lgan tamoyillar rivojlanishi, yangilanib borishi, Variatsion- variant ekanini namoyon etadi. Shunday qilib, mavzu tuzilishida qarama qarshi bo'lgan takrorlash va yangilanish tamoyillari shubxasiz rondo shaklini eslatadi[14]. Asarning keyingi taxlili shuni ko'rsatadiki, mavzu o'zida bo'lgan barcha xususiyatlari, keyingi rivojlanish bosqichlarida xam o'z aksini topadi va bu mavzuning tezis sifatida talqin etilishiga asos beradi. Aniqroq aytganda, tezis-mavzu-tematik material va ritmni rivojlanish tamoyillari, faktura, shakl, tonal rejasini oldindan aniqlab beradi. Ma'lumki bunday mavzu va yaxlitlik munosobatlari fuga uchun ham xosdir. Aytish joizki, melodik mavzuning o'zida turli xil polifonik variantlar ustunlik qiladi: Imitatsiya, aylanmali, rakaxod va boshqalarni ko'rish mumkin. Ular nafaqat bir ovozli yashirin polifoniya ko'rinishida, balki ovozlar orasida ham namoyon bo'ladi.

Asarning keyingi rivojlov bosqichlarida xam rondo va variantlik tamoyillari o'z aksini topgan. Refren qismining o'zi 16 taktdan iborat bo'lib, undan so'ng ikkita tugallangan tuzilma keladi.



### 1.2 nota matnni misolida<sup>4</sup>

Ular refren variantlari xisoblanib, turli variatsion – varaintl usullar orqali rivojlandi:

Kuyning lad o’zgarishi;

Faktura o’zgarishi (Agar refrenning o’zida yashirin imitatsiya bo’lsa, ushbu variantlarda kanonik-imitatsiya qollaniladi);

Ritmik usulning o’zgarishi va yangilanishi;

Lavxa melodik jixtda refren mavzusining unsurlariga asoslangan bo’lsa, boshqa tamondan esa xarakter, ritmik usul, tonallik, fakturaning yangilanishi kuzatiladi. Refren kabi birinchi lavxa ham ikki variantga bo’linadi (b1, b2).

Lavxa qolgan bo’limlarga qaraganda o’zining o’xshash va yangiligi bilan ajralib turadi. O’xshash tamonii refren kuyining lad-oxangi (MI-lya) bilan bog’liq. Yangiligi shundaki, lavxa faktura (Gamafon-garmonik uslubda), garmoniya, yangi ostinatoli usul orqali namoyon bo’ladi.

Ikkinchi lavxadan keyin refren mavzusi, yangi tonallikda qaytib keladi shu sababli uni refrenning tonal varianti sifatida qabul qilish mumkin (Re frigiy).

6- raqmdan boshlab 3-lavxa bayon etiladi. Shuni takidlash kerakki, bu qism o’zining yorqinligi, jo’sh qinligi, rang-barangligi bilan ajralib turadi va asarda kulminatsiya vazifasini

<sup>4</sup> N. Erkayev Fortepiano va skripka uchun asari

bajaradi. Mavzuiylik va rivojlanish tamoyilliga ko'ra, uni sintezlashgan qism, deb aytish mumkin, chunki, bir tomondan u avval kelgan bo'limlarning belgilarini qamrab oladi. Ikkinci tomondan esa, printipial yangiliklarni kiritadi. Birinchi navbatda yangiligi faktura bilan bog'liq. Bu yerda kompozitor ilk marotaba qatlamlı polifoniya turini qo'llagan. Ushbu faktura uchta mustaqil ovozdan tashkil topgan. Uning yuqori ovozida yorqin dramatik xarakterda bo'lgan yangi mavzu yangraydi; o'rtadagi ovoz refren mavzusining kamaytirilgan variantini ritmik diminutsiya usuli orqali namoyon etadi. Bu ko'rinish mavzu xarakteriga ta'sir qilib, uni rivojlantiradi va faollashtiradi. Refrenning ritmik usuli takrorlangan xolda, pastdag'i ovoz o'ziga xos ostinatoli vazifani bajaradi. Shunday qilib, ushbu faktura ikki qarama-qarshi-stabil va mobil moyilliklarni qamrab oladi:bas -stabilik ( ritmik usul), melodik ovozlar esa mobil vazifasini bajaradi.

Aytish joizki, kulminatsiya ichida ham ikki variantni ajratish mumkin (d1 –d2). Unda gio'zgarishlar faktura va polifonik usullar bilan bog'liqdir. 3-lavxaning yakunlovchi taktlari refrening navbatdagi to'rtinchi varianti yangi tonallikda berilib asar yakunlanadi.

Shunday qilib, asarning mavzu va yaxlitlikning munosabatlari shaklining xar xil darjasida namoyon bo'ladi Rondo shaklinning unsuri bo'lgan mavzu o'zida hamda butun asr matosida rivojlanadi. Variatsinlik mavzuning o'zida, refren darajasida (mavzu+2-variant), lavxalarda va nihoyat butun asar darajasida o'z aksini topgan. Kompozitorning o'zi asarga «Rondo » deb nom bergen. Darxaqiqat, refrenning qayta takrorlanishi, lavxalar bilan almashinishi va ularning doimiy o'zgarishi rondo shakliga xosdir.

Taxlil natijalarishuni ko'rsatadiki ushbu asarda rondo va variant-variatsionlik tamoyillari teng xuquqli tarzda namoyon bo'ladi. Undan tashqari, polifonik usullar xam muxim axamiyatga egadir. Asar rondo-variantlilik shakl tamoyillariga asoslangan bo'lsada, unda noodatiy bo'lgan xususiyatlarni xam ko'rishimiz mumkin.

Monointonotsionlikning ustunligi;

Variatsionlik tamoyillarining muxim axamiyatga ekani;

Refren xamda lavxalar va ularning variantlari bilan ketma- ket kelishi;

Refrenning doimiy o'zgarishi, ba'zan esa uning tushirib qoldirilishi;

Keying bo'limlarning mavzu-tezisdan kelib chiqishi;

Mavzu asarning bevosita bog'liqligi;

Fikrimizcha, ko'rsatilgan noodatiy belgilar, maqomning cholg'u bo'limidagi xona va bozgo'y tamoyillinig aks etishi bilan bog'liqdir. Ma'lumki maqomlarda bozgo'y o'zgarmaydigan qism, xona esa doimiybalandligini o'zgartirgan xolda bir xil intonatsion materilga asoslanadi.

Misol tariqasida Gardun bo'limining tuzilish printsipini ko'rstish mumkin:

Gardun: B X1 X2 X3 B3 b X4 B.

Ushbu asarning shaklini quydagicha sxema orqali ko'rish mumkin:

### 1.Jadval5

O`ziga xos shakl xususiyati										
	Refren			1 lavha	2 lavha	refren	Kulminasiya			Refren
Rondo	A (e frigiy) Mavzu tezis 16 takt	A 1 (e a frigiy) (1-variant) 16 takt	A2 (a frigiy (2 variant) 18 takt	Yangi B material b1 b2 15t 11 t	Yangi C material 17 takt	A3 ( d g firigiy) (3 variant) 18 takt	3-lavha kuliminasiya 1-qatlam yangi kuy D 2-referen kamaytirilgan 3-usul takrorlanishi	d1 variant 9 takt	d2 variant 25 takt	A4 (Fa diyez frigiy) (4-variant) 24 takt
Maqom prinsipi	Bozguy			1-xona	2-xona	bozguy	3-xona Avj			Bozguy

Shunday qilib N. Erkayevning «Rondo» asrida qo'llanilgan polifonik, rondo, variantlilik, va shu bilan birga, monodiyaning xona-bozgo'y tamoyiliga ega bo'lgan xususiyatlar, chinakam milliy asarlarni yaratish imkonini bergen.

O'ylamizki, taxlil qilingan asar kompozitorning shubxasiz yutug'i va innovatsion yondashuvidir deb xisoblaymiz.

Xulosa: Shunday qilib, bugungi kunda bastakor doimiy bo'lishi kerak har bir yangisini tuzish jarayonida ko'plab ijrochilar bilan aloqa qilib ishlaydi. Ba'zan bastakor kim uchun (ma'nosi) aniq bilishi kerak ma'lum bir rassom) uning yangi asari mo'ljallangan Bu juda har bir bastakor uchun muhim va zarur lahza.

Buning imkoniyatlarini bilish ijrochi, bastakor o'zi uchun u yoki bu variantni tanlash vazifasini osonlashtiradi bugungi kunda juda muhim bo'lgan ovozli ishlab chiqarish, yangi effektlarni qo'llash kun. Bundan tashqari, ba'zida ijrochi ijro masalasida bunday echimni topishi mumkin, bastakor uchun bunga erishish qiyin bo'lar edi. Ijrochi qimmatli narsalarni berishi mumkin asar yaratish jarayonida maslahat. Yuqoridagilarni umumlashtirib, shuni ta'kidlash kerakki, muammo bastakorning ijrochilar, dirijyorlar, ovoz muhandislari bilan aloqasi, emas nafaqat professional, balki psixologik ham. Zamonaviy bastakor sifatida ijodkor, rassom singari, doimo turli xil narsalar bilan o'zaro aloqada odamlar, uni ta'minlash uchun aloqa qobiliyatiga ega bo'lishi kerak belgilangan maqsadlarga muvaffaqiyatlari erishish.

Zamonaviy o'zbek musiqaning xususiyatlari har tomonlamadan rivojlanadi – milliy, akademik, vokal, cholg'u, klassik va ommaviy musiqa turlari mavjud.

Umuman olganda, aslida, zamonaviy musiqa madaniyatini tashkil etuvchi turli uslublar, janr va shakllar murakkab tizimini shakllanadi. Bu o'z navbatida, an'ana va xalqimizning boy merosi asoslangan, deb ta'kidlash lozim. O'zbekiston bastakorlari Sharq va G'arb mumtoz

<sup>5</sup> N.Erkayevning asari sxemasi F.nazarov.

musiqiy san'atlarining an'analari izidan borib turli janr va shakllarda musiqiy asarlar yaratib, Vatanimizning musiqiy madaniyatining rivojlanish jarayoniga samarali hissa qo'shib kelmoqdalar. Musiqiy ijodkorlarimizning yaratgan qo'shiq va romanslar, kamer va simfonik asarlari ijro jamoalar va yakka ijrochilar repertuaridan munosib o'rin olgan.

**ADABIYOTLAR RO'YXATI:**

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: “O'zbekiston”, 2014.
2. O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi. 22.09.1994.
3. O'zbekiston Respublikasi “Kadrlar tayyorlash milliy dasturi”. – T., 1997.
4. Mirziyoyev Sh.M. “Taqnidiy tahlil, qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik – har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak”. – T.: “O'zbekiston”, 2017.
5. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oljanob xalqimiz bilan birga quramiz. – T.: “O'zbekiston” NMIU, 2017.
6. Способин И. Элементарная теория музыки. М. Музыка, 1979. С.28.
7. Тюлин Ю. Учения о гармонии. М. Музыка . 1939.с.37.
8. Karimova N, Nazarov F. Fortepiano o'qitish metodikasi. T., 2020, 11-b
9. Девятова.О. Особенности творческого процесса композитора книга М. 1956.с25.
10. Farmonova, S. (2021). Opportunities for the Development of the Communicative Culture of Future Teachers through the Design of Teaching. International Journal of Culture and Modernity, 11, 172-175.
11. Farmonova, S. (2019). THE TOLE OF THE PROJECT TEACHING TOOL IN DEVELOPING THE COMMUNICATIVE CULTURE OF FUTURE TEACHERS. Scientific Bulletin of Namangan State University, 1(6), 434-441.
12. FARMONOVA, S. M. (2020). Improvement of Professional Thinking in Future Teachers. International Journal of Innovations in Engineering Research and Technology, 7(05), 251-257.
13. Sharafutdinova, K. G. (2020). Destruction of family relations psychoprophylaxis family-neighborhood-educational institution cooperation. ACADEMICIA: An International Multidisciplinary Research Journal, 10(11), 1000-1007.
14. Sharafutdinova, K. G. (2021). THE ROLE OF TEMPERAMENT IN THE FORMATION OF INDIVIDUAL AND DESTRUCTIVE INDIVIDUAL RELATIONSHIP STYLE. Theoretical & Applied Science, (8), 210-214.
15. Sharafutdinova, K. G., Kulmamatova, F. K., & Haydarova, S. (2021). The role of cognitive psychology in the elimination of destructive behavior. Asian Journal Of Multidimensional Research, 10(4), 957-964.
16. Шарафутдинова, Х. Г., & Бердиева, М. М. (2018). ПРОБЛЕМА ЛИЧНОСТНО-ОРИЕНТИРОВАННОГО ОТНОШЕНИЯ К РЕБЁНКУ В ПРОЦЕССЕ ОБРАЗОВАНИЯ. Гуманитарный трактат, (25), 89-91.